

ABDULLA ORIPOV ASARLARINI O'QITISHDA TA'LIM TEKNOLOGIYALARINING O'RNI

Muxtorova Lobar Zohir qizi,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti

Usarova Laylo Ibragimovna, ilmiy rahbar, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

muxtorovalobar316@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola shoir Abdulla Oripovning adabiy merosini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida o'rganishning metodik jihatlarini yoritiladi. Maqolada ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarning adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshirish, matnni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish yo'llari ko'rsatib beriladi. Maqolada A.Oripov asarlarining poetik qatlamlarini anglashda innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar, multimediali metodlar va interaktiv mashg'ulotlarning o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, didaktik o'yinlar, interaktiv taqdimotlar va multimediali resurslardan foydalanishning afzalliklari yoritib beriladi..

Kalit so'zlar. Abdulla Oripov, ta'lim texnologiyalari, interaktiv ta'lim, poetik tafakkur, adabiyot o'qitish metodikasi, didaktik o'yinlar.

ABDULLA O'RİPOV'UN ESERLERİNİN ÖĞRETİMİNDE EĞİTİM TEKNOLOJİLERİNİN ROLÜ

Muxtorova Lobar Zohir qizi,

Özbekistan-Finlandiya pedagogi enstitüsü yüksek lisans öğrencisi,

Usarova Laylo İbragimovna, bilimsel danışman,

filoloji bilimleri doktoru, doçent

Özet. Bu makalede, şair Abdulla Oripov'un edebi mirasının modern eğitim teknolojileri temelinde incelenmesinin yöntemsel yönleri ele alınmaktadır. Eğitim teknolojileri aracılığıyla öğrencilerin edebiyatla ilgilerini artırma, metin analiz becerilerini geliştirme ve yaratıcı düşünme yeteneklerini şekillendirme yolları tartışılmaktadır. Makalede, A.Oripov'un eserlerinin şiirsel katmanlarını anlamada yenilikçi yaklaşımların, dijital teknolojilerin, multimedya yöntemlerinin ve interaktif derslerin rolü analiz edilmektedir. Ayrıca, didaktik oyunlar, interaktif sunumlar ve multimedya kaynaklarının kullanımının avantajları ele alınmaktadır.

Anahtar kelimeler. Abdulla Oripov, eğitim teknolojileri, interaktif eğitim, şiirsel düşünme, edebiyat öğretim yöntemi, didaktik oyunlar.

РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АБДУЛЛЫ ОРИПОВА

Мухторова Лобар Зоҳир қизи,

магистрантка Узбекско-Финского педагогического института

Усарова Лайло Ибрагимовна, научный руководитель,

кандидат филологических наук, доцент

Аннотация. В данной статье рассматриваются методические аспекты изучения литературного наследия поэта Абдуллы Орипова на основе современных образовательных технологий. Отражены пути повышения интереса учащихся к литературе, развития навыков анализа текста и формирования творческого мышления с помощью технологий обучения. Анализируется роль инновационных подходов, цифровых технологий, мультимедийных методов и интерактивных занятий в понимании поэтических слоев

произведений А. Орипова. Также освещаются преимущества использования дидактических игр, интерактивных презентаций и мультимедийных ресурсов.

Ключевые слова. Абдулла Орипов, образовательные технологии, интерактивное обучение, поэтическое мышление, методика преподавания литературы, дидактические игры.

THE ROLE OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING THE WORKS OF ABDULLA ORIPOV

Muxtorova Lobar Zohir qizi,

master's student's of the Uzbek-Finnish pedagogical institute

Usarova Laylo Ibragimovna, scientific advisor,

candidate of philological sciences, associate professor

Abstract. This article explores the methodological aspects of studying the literary heritage of the poet Abdulla Oripov based on modern educational technologies. It highlights the ways to enhance students' interest in literature, develop text analysis skills, and foster creative thinking through educational technologies. The article analyzes the role of innovative approaches, digital technologies, multimedia methods, and interactive lessons in understanding the poetic layers of A. Oripov's works. Additionally, the advantages of using didactic games, interactive presentations, and multimedia resources are discussed.

Keywords. Abdulla Oripov, educational technologies, interactive learning, poetic thinking, literature teaching methodology, didactic games.

XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning serqirra ijodi o'zbek xalqining ma'naviy boyligiga beqiyos hissa qo'shgan. Shoirning vatanparvarlik, insonparvarlik, tabiatga muhabbat, hayot va o'lim haqidagi falsafiy mushohadalari bilan yo'g'rilgan asarlari yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta'lim tizimida axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishi o'qituvchilarga Abdulla Oripov asarlarini o'quvchilarga yanada qiziqarli va samarali tarzda yetkazish imkoniyatini yaratmoqda. Shu bois, ushbu maqolada Abdulla Oripov asarlarini o'qitishda ta'lim texnologiyalarining o'rni va ahamiyati, ulardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Abdulla Oripov o'zbek adabiyotida o'ziga xos ovozga ega shoir sifatida tanilgan. Uning she'rlarida teran falsafiy mushohadalar, hayotiy kuzatishlar va insoniy tuyg'ular o'z ifodasini topgan. Shoirning "O'zbekiston", "Ona tili", "Genetika", "Yurtim shamoli" kabi asarlari o'zbek xalqining milliy g'ururini, vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishga xizmat qiladi. Abdulla Oripov asarlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, mavzulari va janrlari xilma-xilligi bilan ajralib turadi. U o'z ijodida lirika, doston, drama kabi janrlarda samarali ijod qilgan. Shoirning o'zbek adabiyotiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. U o'z she'rlari bilan o'zbek adabiyotining mavzu doirasini kengaytirdi, unga yangi badiiy uslublar va obrazlar olib kirdi. A.Oripov she'riyatida obraz tasviriy badiiy vosita sifatida xizmat qilib, o'quvchining tasavvurini kengaytiradi. Shoir o'z obrazlarini tabiat manzaralari, inson kechinmalari va falsafiy mushohadalar orqali yaratadi. Kuz, bahor, tun, quyosh, lola, daraxt, kabi tasvirlar orqali inson hayotining turli bosqichlari va ruhiy kechinmalari ifodalanadi. Masalan, kuzning xazonlari nafaqat tabiatning bir qismi, balki, inson qalbidagi o'zgargan holatlar, his tuyg'ularni ham aks ettiradi. Bunday usul bilan yaratilgan obrazlar chuqur ma'noni ochib berishga xizmat qilishini yaxshi bilamiz. Shuning uchun ham shoir asarlarini o'quvchilarga o'rgatishda, asarlar ularning murg'ak qalblaridan ta'sirli joy olishi, hamda ularda badiiy adabiyotga bo'lgan muhabbatning ortishiga hissa qo'shish uchun turli xil metodlardan foydalanishni tavsiya qilamiz [3: 55].

Adabiyot fanining asosiy maqsadi shunchaki fakt va voqealarni yodlash emas, balki shaxsning ichki dunyosini boyitish, estetik tafakkurni rivojlantirishdir. Abdulla Oripov she'riyatida

estetik ideal, go'zallik mezonlari, haqiqat va ezgulik singari tushunchalar badiiy vositalar orqali ochib beriladi. Bularni o'quvchiga yetkazishda interaktiv drama usullari, ssenariy asosida ishlash, rolli o'yinlar katta samara beradi.

A.Oripov asarlarining poetik qatlamlarini o'rganishda innovatsion yondashuvlar. Abdulla Oripovning adabiy merosi o'zining boy poetik qatlamlari va chuqur ma'nolari bilan ajralib turadi. Uning she'rlari nafaqat zamonaviy o'zbek adabiyotining yuksak namunalaridan biri, balki o'quvchilarda estetik va intellektual fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladigan adabiy asarlardir. Shu bois, Oripovning asarlarini o'rganishda innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarga poetik qatlamlarni chuqurroq va kengroq tushunishga yordam beradi.

Innovatsion yondashuvlar orasida raqamli texnologiyalar va multimediali metodlarni qo'llash samarali usul bo'lib, bu o'quvchilarning diqqatini jalb qilish, tushunchalarni yaxshiroq tushunish va yaratgan tasavvurlarni mustahkamlashga yordam beradi. Misol uchun, Oripovning she'riy asarlarini interaktiv tarzda tahlil qilish, audio va video materiallar orqali ularning ma'nolarini ochib berish, she'rlarni turli badiiy obrazlar bilan tasvirlash o'quvchilarga poetik qatlamlarning murakkabligini yaxshiroq anglash imkonini yaratadi [2: 273].

Shuningdek, didaktik o'yinlar va interaktiv mashg'ulotlar orqali Oripovning asarlaridagi syujet, obrazlar va til elementlarini o'rgatish mumkin. Bu metodlar o'quvchilarda adabiyotga bo'lgan qiziqishni oshiradi va ularni o'qishga rag'batlantiradi. O'quvchilar she'rlaridagi tasavvurlarni yaratishda va ularga yangi ma'nolar yuklashda o'z ijodiy fikrlarini shakllantirishlari uchun innovatsion texnologiyalar yordam beradi. A.Oripov asarlarining poetik qatlamlarini o'rganishda yana bir muhim jihat shundaki, multimedia resurslari yordamida she'rlarni o'qish va tahlil qilish jarayonini yanada jozibador va interaktiv qilish mumkin. Multimediali taqdimotlar, interaktiv platformalar orqali she'rlarni tahlil qilish va ularning ko'plab qatlamlarini ko'rsatish o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

Shu tarzda Abdulla Oripovning asarlarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari yordamida o'rganish o'quvchilarga faqatgina adabiy asarlarni o'rganish emas, balki ularning ichki mohiyatini, ruhiy qatlamlarini chuqurroq tushunishga imkoniyat yaratadi. Innovatsion yondashuvlar orqali she'rlarda yotgan chuqur ma'no va tasavvurlarni anglash, o'quvchilar ijodiy va intellektual rivojlanishga yordam beradi.

Abdulla Oripov asarlarini o'qitishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari Abdulla Oripov asarlarini o'qitish jarayonini yanada qiziqarli, interaktiv va samarali qilish imkonini beradi.

Interaktiv doskalardan foydalanish. Interaktiv doskalar yordamida o'quvchilar she'rlarni tahlil qilish, mavzularni vizualizatsiya qilish, she'rning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini aniqlash kabi vazifalarni bajarishlari mumkin. Masalan, o'qituvchi "o'zbekiston" she'rining asosiy g'oyasini interaktiv doskada aks ettirishi, o'quvchilardan she'rdagi vatan madhini ifodalovchi misralarni topishni so'rashi mumkin.

Multimediali taqdimotlar. Multimediali taqdimotlar shoir hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish, asarlarini sahnalashtirish, she'rlarga musiqiy va vizual illyustratsiyalar yaratish uchun qulay vositadir. o'qituvchi Abdulla Oripovning hayoti va ijodiga bag'ishlangan taqdimotni tayyorlab, o'quvchilarga shoirning bolaligi, o'qish davri, ijodiy faoliyati va adabiy merosi haqida ma'lumot berishi mumkin. Shuningdek, she'rlarni o'quvchilar tomonidan sahnalashtirish orqali ularning asarga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin.

Onlayn resurslar. Internetda Abdulla Oripovning asarlari, uning hayoti va ijodiga bag'ishlangan turli materiallar, virtual muzeylar va elektron kutubxonalar mavjud. o'qituvchi ushbu resurslardan dars jarayonida foydalanishi, o'quvchilarga uy vazifasi sifatida berishi mumkin.

Didaktik o'yinlar va viktorinalar. Didaktik o'yinlar va viktorinalar o'quvchilarning Abdulla Oripov asarlarini o'zlashtirish darajasini tekshirish, ularning bilimini mustahkamlash va darsga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun samarali vositadir. Masalan, "Kim ziyrak?", "She'rni davom ettir", "Topqirlar bellashuvi" kabi o'yinlar orqali o'quvchilarning asarlarni yod olish, ularning mazmunini tushunish va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin [5: 134].

Ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. Abdulla Oripov asarlarini o'qitishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning quyidagi ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi:

Ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ta'lim texnologiyalari o'quvchilarga insholar yozish, she'rlarga sharhlar yaratish, asarlar asosida sahna ko'rinishlari tayyorlash kabi ijodiy vazifalarni bajarish imkonini beradi.

Matnni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish: Interaktiv doskalar va onlayn resurslar o'quvchilarga asarning g'oyasini aniqlash, badiiy vositalarni topish, obrazlar tizimini tahlil qilish kabi vazifalarni bajarishda yordam beradi.

Axborot texnologiyalari sohasidagi bilimlarini oshirish ta'lim texnologiyalari o'quvchilarga onlayn resurslardan foydalanish, taqdimotlar yaratish, multimediya materiallari bilan ishlash kabi ko'nikmalarni egallash imkonini beradi.

Abdulla Oripov asarlarini o'qitishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning ijodiy va tahliliy qobiliyatlarini rivojlantirish, axborot texnologiyalari sohasidagi bilimlarini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. o'qituvchilar dars jarayonida interaktiv doskalar, multimediyali taqdimotlar, onlayn resurslar va didaktik o'yinlardan samarali foydalanishlari, o'quvchilarni ijodiy faoliyatga undashlari lozim. Kelgusida ushbu yo'nalishda tadqiqotlar olib borish, ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning yangi metodlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oripov A. Tanlangan asarlar. – T.: "Sharq", 2000. – 120-b.
2. Temirova M. Abdulla Oripov lirikasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish. // Ilm-fan taraqqiyotida muhim omillar va izlanishlar, 2025. 1(1), – 278-b.
3. Qo'shjonov M., Suvon M.. Abdulla Oripov. - Toshkent: "Ma'naviyat", 2000. – 55-b.
4. "Oripov Abdulla". Uzbek Soviet Encyclopedia (in Uzbek). Vol. 8. Tashkent: Uzbek Soviet Encyclopedia. 1976. – 281-b.
5. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: "O'qituvchi", 2007. – 134-b.
6. Ибрагимовна, УЛ (2024). Абдулла Ориповнинг «Сохибкирон» драмиси мардонаворлик ва жасурлик г'ойаларининг улуг'ланиши. Теория современных научных исследований в области педагогики
7. Mavluda, A., Gulbonu, T., & Ibragimovna, U. L. (2024). Masalchilik va Ezop masallari. Intellectual education technological solutions and innovative digital tools, 3(32), 99-100.
8. Ibragimovna, U. L. (2024). "Jannatga yo'l" dostonidagi obrazlarga xos insoniy fazilatlar. The theory of recent scientific research in the field of pedagogy, 3(27), 170-171.